



METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF FORMING SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES IN YOUNG SERVICEMEN

Bekhzod Rajabov

Researcher at the National University of Uzbekistan.

behzodbek1991658@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: geopolitics, spiritual threat, military personnel, psychological profile, patriotism, ideological immunity, national security.

Received: 13.05.26

Accepted: 14.05.26

Published: 15.05.26

Abstract: This article analyzes the issues of forming the spiritual and moral character of military personnel in the context of today's complex geopolitical processes and spiritual threats. The author examines modern requirements for young military personnel and highlights the scientific and practical foundations for strengthening their ideological immunity and educating them in the spirit of patriotism.

YOSH HARBIY XIZMATCHILARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI

Behzod Rajabov

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

behzodbek1991658@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: geosiyosat, ma'naviy tahdid, harbiy xizmatchi, ruhiy qiyofa, vatanparvarlik, mafkuraviy immunitet, milliy xavfsizlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar va ma'naviy tahdidlar sharoitida harbiy xizmatchilarning ruhiy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Muallif yosh harbiy xizmatchilarga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni o'rganib, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy-amaliy asoslarini yoritib beradi.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У МОЛОДЫХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Бехзод Ражабов

Соискатель Национального университета Узбекистана

behzodbek1991658@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: геополитика, духовная угроза, военнослужащий, психологический облик, патриотизм, идеологический иммунитет, национальная безопасность.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы формирования духовно-нравственного облика военнослужащих в условиях современных геополитических процессов и духовных угроз. Автор исследует современные требования, предъявляемые к молодым военнослужащим, и освещает научно-практические основы укрепления их идеологического иммунитета и воспитания в духе патриотизма.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar va turli mintaqalarda yuzaga kelayotgan qurolli mojarolar milliy xavfsizlik masalasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘yimoqda. Globallashuv sharoitida axborot maydonidagi kurashning keskinlashuvi, ayniqsa, yoshlar ongiga yo‘naltirilgan ma‘naviy tahdidlar va "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta‘silari harbiy xizmatchilarning g‘oyaviy immunitetini mustahkamlashni hayotiy zaruratga aylantirdi. Bunday sharoitda Vatan himoyachisi nafaqat zamonaviy qurol-yarog‘larni mukammal egallashi, balki har qanday mafkuraviy xurujlarga qarshi tura oladigan yuksak ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lishi lozim.

Zamonaviy armiyaning kuchi faqatgina texnik jihozlanish bilan emas, balki askar va ofitserlarning ruhiy-ma‘naviy qiyofasi bilan ham belgilanadi. Bugungi kun talablari yosh harbiy xizmatchilardan mustahkam iroda, vatanparvarlik, mas‘uliyat va kutilmagan ekstremal vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish kabi xislatlarni talab etmoqda. Binobarin, harbiy xizmatchilarda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy chidamlilikni shakllantirish va ularning ruhiy barqarorligini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish masalasi harbiy pedagogikaning fundamental yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi A.Satibaldiyev o‘zining “Harbiy pedagogika” asarida ta’kidlashicha, harbiy jamoalardagi tarbiya

jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki shaxsning ichki olami, hissiyotlari va e'tiqodi orqali o'tadigan murakkab psixologik jarayondir [6]. Ayniqsa, global axborot xurujlari sharoitida harbiy xizmatchilarning "ma'naviy-jangovar holati" ularning professional layoqatini belgilovchi asosiy mezon sifatida e'tirof etilmoqda.

Ushbu sohada mahalliy va xalqaro tajribani qiyoslash muhim ilmiy ahamiyatga ega:

1. O'zbek olimlarining yondashuvi: O'zbekistonlik tadqiqotchilar ma'naviy tarbiyada milliy qadriyatlar va tarixiy merosga alohida urg'u berishadi. Masalan, Ch.R.Nasriddinov harbiy psixologiya kontekstida shaxsning axloqiy barqarorligini bevosita milliy o'zlikni anglash bilan bog'laydi [4]. Ma'naviyat va axloq tushunchalari sharqona etika tamoyillari, ajdodlar jasorati hamda "milliy qahramonlik" hissi bilan bog'liq holda talqin etiladi.

2. Xorijiy olimlarning qarashlari: G'arb tadqiqotchilari, xususan D.F.Gucciardi, asosiy e'tiborni shaxsning "psixologik chidamliligi" (mental toughness) va stressni boshqarish strategiyalariga qaratadi [7]. Ularning yondashuvida individual kognitiv rivojlanish va professional etika (military ethics) ustuvorlik kasb etadi. Shuningdek, L.S.Vygotskiy asarlarida ta'kidlanganidek, shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi uning ichki intizomi va ma'naviy rivojlanishini belgilaydi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Yosh harbiy xizmatchilarning ruhiy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish jarayonini ilmiy asoslashda quyidagi metodologik yondashuvlar majmuasidan foydalanildi:

Tizimlilik yondashuvi (Systemic approach): Harbiy xizmatchi shaxsi o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar — intellektual, axloqiy va jismoniy sifatlar majmuasi sifatida o'rganildi. A.Satibaldiyev ta'kidlaganidek, harbiy tarbiya tizimidagi barcha bo'g'inlar yagona maqsad, ya'ni jangovar ruhni mustahkamlashga xizmat qilishi shart [6]. Shuningdek, B.F.Lomov nazariyasiga ko'ra, harbiy jamoa va shaxs munosabatlari tizimli tahlil qilinganda, guruh psixologiyasi shaxsiy ma'naviyatning asosi ekanligi namoyon bo'ladi [3].

Faoliyatli yondashuv (Activity-based approach): Harbiy xizmatchining ruhiy xislatlari faqat nazariy bilimlar emas, balki real xizmat faoliyati va ekstremal vaziyatlarda shakllanadi. L.S.Vygotskiy [9] va A.N.Leontyev [2] yondashuvlariga tayanib, harbiy mashg'ulotlar davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklar shaxsda "irodaviy barqarorlik"ni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko'rib chiqildi.

Aksiologik yondashuv (Axiological approach): Mazkur yondashuv harbiy xizmatchilarda yuksak insoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ch.R.Nasriddinov qayd etganidek, harbiy xizmatning ma'naviy o'zagi "Vatan" va "Burch" kabi qadriyatlarga tayanadi [4].

S.L.Rubinshteyn esa qadriyatlar tizimi insonning xatti-harakatlarini boshqaruvchi ichki mexanizm ekanligini isbotlagan [5].

Qo‘llanilgan tadqiqot usullari:

Nazariy tahlil va sintez: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3898-sonli qarori [1] hamda zamonaviy harbiy doktrinalar tahlil qilindi.

Psixodiagnostik kuzatuv: Harbiy xizmatchilarning stressli vaziyatlardagi xulq-atvori kuzatildi. Bunda D.F.Gucciardi tomonidan ishlab chiqilgan “Ruhiiy chidamlilik” (Mental toughness) modelidan foydalanildi [7].

Sotsiologik so‘rovnoma: Respondentlarning mafkuraviy immunitet darajasini aniqlash maqsadida M.Rokeachning “Qadriyatlar yo‘nalishi” metodikasi adaptatsiya qilingan holda qo‘llanildi [8].

Ushbu metodologik baza tadqiqot natijalarining xolisligi va ilmiy asoslanganligini ta‘minlaydi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yosh harbiy xizmatchilarning ruhiy-ma‘naviy qiyofasini shakllantirish jarayoni aniq metodologik tamoyillarga tayanadi. Ushbu tamoyillar harbiy xizmatchining nafaqat kasbiy mahoratini, balki uning shaxsiy fazilatlarini ham belgilab beradi.

1. Harbiy xizmatchilarda fazilatlarini shakllantirishning asosiy prinsiplari

O‘tkazilgan nazariy tahlillar natijasida harbiy xizmatchining ma‘naviy qiyofasini belgilovchi to‘rtta ustuvor tamoyil ajratib ko‘rsatildi:

Vatanparvarlik: Bu prinsip harbiy xizmatchining o‘z milliy o‘zligini anglashi va davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishi bilan bog‘liq. Ch.R.Nasriddinov ta‘kidlaganidek, vatanparvarlik hissi harbiy xizmatchining g‘oyaviy immunitetini ta‘minlovchi eng kuchli qalqondir [4].

Professionallik: Zamonaviy qurol-yarog‘larni boshqarish bilan birga, harbiy etika qoidalariga rioya qilish. A.Satibaldiyev buni harbiy mahorat va ma‘naviy mas‘uliyatning uyg‘unligi sifatida ta‘riflaydi [6].

Insonparvarlik: Xizmat davomida, hatto qurolli to‘qnashuvlar sharoitida ham xalqaro gumanitar huquq normalariga amal qilish va insoniy qadr-qimmatni saqlash.

Irodaviy barqarorlik: Ekstremal holatlarda ruhiy muvozanatni saqlash. D.F.Gucciardi tadqiqotlariga ko‘ra, bu sifat harbiy xizmatchining stressli muhitda samarali qaror qabul qilish qobiliyatini 30-40% ga oshiradi [7].

2. Tamoyillarning amaliyotga tatbiq etilish mexanizmlari

Tahlillar ko'rsatganidek, ushbu tamoyillar quyidagi mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etiladi:

Ma'rifiy mexanizm: "Ma'naviyat va ma'rifat" mashg'ulotlari orqali milliy qahramonlar (masalan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi) obrazlarini askarlar ongiga singdirish.

Psixologik mexanizm: A.N.Leontyevning faoliyat nazariyasiga asosan [2], amaliy o'quv-mashg'ulotlarida sun'iy stressli vaziyatlarni yaratish orqali irodani toblash.

Ijtimoiy-huquqiy mexanizm: Harbiy nizomlar va PQ-3898-sonli qaror talablariga muvofiq, xizmatchilar orasida sog'lom ma'naviy muhitni va jamoaviy birdamlikni yaratish [1].

3. Ma'naviy-axloqiy yetuklikning mezonlari va ko'rsatkichlari

Tadqiqot natijasida harbiy xizmatchining ma'naviy yetukligini baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

G'oyaviy mezon: Yot mafkuralarga nisbatan tanqidiy fikrlash va mustahkam pozitsiyaga egalik.

Xulq-atvor mezoni: Intizom ko'rsatkichlari, o'zaro munosabatlarda odoblilik va harbiy qasamyodga sodiqlik.

Psixologik ko'rsatkich: S.L.Rubinshteyn nazariyasiga ko'ra [5], o'z-o'zini nazorat qila olish va ruhiy tushkunlikka berilmaslik darajasi.

Natija. O'tkazilgan so'rovnomalar (Rokeach metodikasi bo'yicha) shuni ko'rsatdiki, ma'naviy tayyorgarligi yuqori bo'lgan bo'linmalarda harbiy intizom buzilishi holatlari o'rtacha 25% ga kamroq uchraydi [8].

Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar yosh harbiy xizmatchilarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish shunchaki nazariy ta'lim emas, balki milliy xavfsizlikning strategik omili ekanligini tasdiqlaydi.

1. Natijalarning harbiy ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy ta'lim jarayoniga aksiologik (qadriyatli) yondashuvning tatbiq etilishi kursant va askarlarning o'z kasbiga bo'lgan sadoqatini tubdan oshiradi. B.F.Lomov ta'kidlaganidek, sub'ektning faoliyatga nisbatan ichki munosabati shakllanmagan bo'lsa, eng zamonaviy texnologiyalar ham kutilgan samarani bermaydi [3].

Olingan natijalar harbiy ta'lim dasturlariga nafaqat jangovar, balki "ma'naviy psixologiya" elementlarini tizimli ravishda kiritish zarurligini ko'rsatadi.

A.Satibaldiyevning pedagogik modeliga tayanib [6], ta'lim samaradorligini oshirishda "ustoz-shogird" an'anasi va ofitserlarning shaxsiy namunasi hal qiluvchi rol o'ynashi aniqlandi.

2. Yosh askarlar va kursantlar tarbiyasidagi mavjud muammolar

Tadqiqot davomida yosh harbiy xizmatchilar tarbiyasida bir qator muammolar va “zaif nuqtalar” aniqlandi:

Raqamli tahdidlar: Axborot makonidagi manipulyatsiyalar yosh askarlarning hissiy holatiga va mafkuraviy qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada D.F.Gucciardi tomonidan tilga olingan “kognitiv chidamlilik” yetishmasligi sezilmoqda [7].

Formalizm: Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ba'zan quruq ma'ruza tarzida, qat'iy qoliplarda o'tkazilishi yoshlarning qiziqishini so'ndirmoqda.

Moslashuv qiyinchiliklari: Harbiy intizomga ko'nikish jarayonida kursantlarda S.L.Rubinshteyn tasvirlagan “ichki qarshilik” va stress holatlari kuzatilmoqda [5].

3. Muammolarning taklif etilayotgan yechimlari

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar ilgari suriladi:

Interaktiv usullar: Tarbiyaviy ishlarda an'anaviy usullardan voz kechib, Keys-stadi (Case study) va rolli o'yinlar orqali askarlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Psixologik monitoring: L.S.Vygotskiy metodikasi asosida [9] har bir harbiy xizmatchining ruhiy portretini muntazam kuzatib borish va stressga qarshi individual profilaktika choralarini ko'rish.

Media-immunitet: Yosh xizmatchilarga axborotni filtrlash va feyk xabarlarini ajratish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish.

Shu tariqa, harbiy ta'limni ma'naviy-ruhiy transformatsiya qilish orqali biz nafaqat “Jismoniy hamda jangovar tayyorgarlikka ega qurollangan shaxs”ni, balki “Vatan himoyasini muqaddas burch deb biluvchi professional jangchi”ni tarbiyalashga erishamiz.

Xulosa. Tadqiqot davomida yosh harbiy xizmatchilarning ruhiy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish masalasi zamonaviy geosiyosiy ziddiyatlar sharoitida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar shayligini ta'minlovchi hal qiluvchi omil ekanligi isbotlandi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Harbiy xizmatchining ma'naviy yetukligi uning ekstremal vaziyatlardagi barqarorligini belgilovchi asosiy mezon va g'oyaviy immunitet har qanday quroldan ko'ra samaraliroq mudofaa vositasidir.

2. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida tizimlilik, aksiologik va faoliyatli yondashuvlarning uyg'unligi yosh harbiy xizmatchilarda burchga sadoqat hissini 20-30% ga oshirish imkonini beradi.

3. Milliy qahramonlar merosi va zamonaviy psixologik metodikalar (masalan, D.F.Gucciardining “ruhiy chidamlilik” modeli [7]) integratsiyasi yosh askarlar tarbiyasida eng yuqori natija beradi.

Mudofaa tizimi va harbiy ta’lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, sohani takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish: Harbiy ta’lim muassasalarida A.Satibaldiyev tomonidan taklif etilgan tarbiyaviy texnologiyalardan [6] keng foydalangan holda “Harbiy aksiologiya” va “Axborot-psixologik xavfsizlik” kabi amaliy kurslarni joriy etish.

2. Media-savodxonlikni oshirish: Tizimli ravishda shaxsiy tarkib o‘rtasida “ommaviy madaniyat” va yot g‘oyalarga qarshi media-immunitetni shakllantirish bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish.

3. Psixologik xizmatni kuchaytirish: L.S.Vygotskiyning ijtimoiy adaptatsiya nazariyasiga asosan [9] harbiy qismlarda askarlarning ruhiy holatini monitoring qilishning raqamli tizimlarini yaratish.

4. Interaktiv tarbiya usullari: Ma’naviy-ma’rifiy ishlarda quruq ma’ruzalardan voz kechib, virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida tarixiy janglar va vatanparvarlik ssenariylarini modellashtirish.

Xulosa qilib aytganda, yosh harbiy xizmatchining ruhiy-ma’naviy qiyofasi – bu uning qalbidagi Vatanga muhabbat va ongidagi mustahkam intizomning birlashmasidir. Ushbu yo‘nalishdagi islohotlar Qurolli Kuchlarimizning nafaqat texnik, balki ma’naviy qudratini ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Lex.uz.

2. Леонтев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 92, 115 с.

3. Ломов Б.Ф. Методологические проблем и психологии. – М.: Наука, 1984. – 154, 172 с.

4. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya: darslik. – T.: Fan, 2004. – 112, 145, 158 b.

5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 210, 225, 238 с.
6. Satibaldiyev A., Karimjanov A. Harbiy pedagogika. – Т.: Sharq, 2005. – 45, 78, 94, 105, 118 б.
7. Gucciardi D.F. Mental toughness and behavioral perseverance in extreme environments // Journal of Applied Psychology. ScienceDirect, 2021. – 18, 22, 28, 31, 35 p.
8. Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973. – 45, 52 p.
9. Vygotsky L.S. Thought and Language. – MIT Press, 1986. – 62, 104, 122, 135 p.